

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№5

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar

bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o’g’li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o’g’li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: **№049864**

MUNDARIJA

Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning budjet daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебутова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижи модели учун барқарорлик таҳлили	19
Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
Abduqayumov Elyorbek Ulug’bek o’g’li, Yo’ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o’rni va ta’siri	33
Umarova Shahnoza	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	40
Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g’li	Avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini ekonometrik modellashtirish	46
Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning ahamiyati	57
Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich, Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	Auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlardan foydalanish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish	66
Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли	Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашни такомиллаштириш	71
Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o‘g‘li	Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o‘rni	80
Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o‘g‘li	Davlat moliyaviy nazoratini modellar va metodologik yondashuvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	92
Muydinov Baxodirjon Numanovich	Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish	101
Mirzanov Zakir Maratovich	Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish	111
Тожибоева Дилором	XXI ахборотлар асри – қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблашуви асри	116
Нурхонов Комилжон Товкараевич	Яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	124
Saydullayev Nodirbek Narzullayevich	Inflyatsion targetirlash sharoitida markaziy bank valyuta intervensiyalari strategiyasini takomillashtirish mexanizmlari	132
Хусаинов Равшан Рахимович	Сравнительный анализ налоговых систем зарубежных стран и трансформация их для Узбекистана	143
Maxkamova Nazokat Umarali qizi	O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rni	150
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	156
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya, amaliyot va uslubiyot	165
Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li	Raqamli texnologiyalar asosida budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish: Farg‘ona viloyati misolida	179
Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi	Avtomatlashtirish davrida ayollarning mehnat bozoridagi transformatsiyasi: global tendensiyalar va O’zbekistonning 2030-yilgacha imkoniyatlari	188
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	Бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари	194
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	Обеспечение надежности аудиторских доказательств при аудите долгосрочных активов	200
To‘xtayev Umidjon Shuhrat o‘g‘li	Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari	209
Djumaniyazov Shavkat Raximovich	Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	216
Siroj Zarina Rustambekovna	O‘zbekistonda demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring tizimini takomillashtirish	223
To‘laev Safarmurod Boymuhammad o‘g‘li	Korporativ mijozlarga innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi	229
Эрдонаев Аликул Халимович	Банк технологиялари ва масофавий банк хизматларининг турларидан фойдаланиш амалиёти	236
Муродов Бобиржон Ҳаётжон ўғли	Иқтисодиётда яширин меҳнат ресурслари айланмаси: иш берувчиларни	247

	масъулияти ва норасмий бандликни бартараф этишнинг тизимли ечимлари	
Abdullayeva Shaxnoza Erkinovna	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish	253
Саттаров Тулкин Абдихалилович	Қишлоқ хўжалиги корхоналарини молиявий барқарорлигини баҳолаш моделлари	261
Sanayev Javohir Shavkat o’g’li	Tijorat banklarida mijozning tranzaksion faolligiga asoslangan adaptiv tariflash mexanizmini takomillashtirish	271
Хасанов Сабирджан Садикович, Раимова Мадинабону Сабирджан кизи	Оценка экономической необходимости строительства ветроэнергетических установок в Узбекистане	278
Karimov Shohruh Ahmadullo o’g’li	O’zbekistonda buxgalteriya xizmatlari bozorining institutsional tuzilmasi: auditorlik va soliq maslahatchilari tashkilotlari reestrlari tahlili	286
Karimqulov Jasur Imomboyevich, Xojanov Baxadir Omirbayevich	Bank infratuzilmasi transformatsiyasi samaradorligini integral baholash metodikasini takomillashtirish	292
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	O‘zbekiston bank tizimining miqdoriy kengayishi va moliyaviy barqarorlik normativlariga rioya etish darajasi: 2017–2025 yillar tahlili	301
Олимова Қизлархон Тўра қизи	Тижорат банкларида муаммоли кредитларни эрта аниқлаш ва мониторинг тизимида мавжуд муаммоларнинг тизимли ечими	308
Xolmurotov Fozil Saribayevich	Hududiy eksportning qo'shilgan qiymati va diversifikatsiya darajasini o'lchash: Xorazm viloyatida export quality index tahlili	314
Jumaniyazov Iskandar Baxodirovich	To‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etish, tannarxni kalkulyatsiya qilish va tahlil etish bo‘yicha xorijiy tajriba	327
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini prognozlashning ekonometrik asoslari	333
Kabilova Zebo Babakulovna	Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	341
O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li	Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv modellarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash	353
Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich	Hududlarda investitsiyalar samaradorligini qisqa panel ma’lumotlari asosida o‘rta muddatga prognozlash: Toshkent viloyati misolida	358
Akhmedova Shokhistakhon	Ways to improve sustainable financing mechanisms in Uzbekistan: capital needs, pilot instruments and scenario-based projections to 2030	368
Xushvaqov Islombek Muxammadi o‘g‘li	Moliya bozorida qarz instrumentlari orqali savdolarni moliyalashtirish	381
Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi	Yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari samaradorligini statistik baholash usullari va mezonlari	388
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Sharapova Mashxura Azadovna	O‘zbekistonda monetar va fiskal siyosatning inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishga ta’siri	399
Гозиев Рзоиддин Чулпон угли, Ким Дмитрий Игнатьевич	Перестройка кадровой стратегии ритейла в эпоху цифровых технологий	406
Qodirov Humoyun Tolibjon o‘g‘li	To‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini boshqarishda eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasi	413
Abdujaborova Mahmura Toshmuxamadovna	Korxona moliyaviy holatining tizimli tahlili	419
Olimova Maftuna Komil qizi	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar bozori talab va taklifi nomutanosibligini statistik baholash	429
Маматова Эленур Рўзимурод қизи	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини кредитлаш механизмини такомиллаштиришнинг илмий-услубий асослари	441
Xodjaniyazov Shohruh Yuldashevich	Hududiy farovonlik indeksini prognozlash: Holt modeli va qiyosiy ekonometrik baholash	450
Maxmasaidova Muslima Ubaydulla qizi	Ko‘p o’zgaruvchili regressiya modeli asosida iqtisodiy ko‘rsatgichlarning o‘zaro bog‘liqligini excel dasturi yordamida tahlil qilish	458
Юсупов А.Т.	Илмий-технологик ва иқтисодий хавфсизлик тизимида олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги (методологик, услубий ва амалий жиҳатлари)	470
Shirinov Uchqun Abduxalilovich	Ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirish	481
Шахабутдинова Муаттар Зиятходжаевна	Институционально-регуляторные условия формирования цифровой модели оценки кредитоспособности заёмщиков	489

Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar moliyaviy barqarorligini integral baholashning ikki blokli modeli (Entropiya vaznlari asosida)	496
Fayazov Xasan Jaxongir ugli	Behavioral and psychological factors in ai use among 15-year-old students: learning and academic performance	504
Urazbayeva Ilmira Konisbayevna	Moliyaviy kontrolling tizimida mavjud muammolar va ularning aksiyadorlik jamiyati moliyaviy samaradorligiga ta’siri	511
Ollokulova Feruza Mansurovna	Milliy iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari	518
Isamitdinova Ra'no Rahimjanovna, Togayev Salim Sobirovich	Investitsiya loyihalari qiymati va muddati monitoringini o'zlashtirilgan qiymat usuli asosida takomillashtirish	525
Alijonov Jamshid Alijon o‘g‘li	Qurilish korxonalarining investitsion salohiyatini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	533
Jafarova Marjona Jafarovna, Xusanova Dilorom Shavkatovna	O’zbekistonda inflatsiya darajasining pasayish sabablari	539
Axmedova Mavluda Shavkatovna	Tasodifiy tebranishlar, xo‘jaliklararo geterogenlik va samarasizlikni ajratib baholovchi panel modellar tizimi	544
Baxromov Azizbek Alisher o‘g‘li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari	551
Гулямова Асия Нурутдиновна	Рынок рассрочки (BNPL) и розничное кредитование в Узбекистане: рост, скрытая стоимость и риски закредитованности	557
Adhamova Gulshoda Yaxyo qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida rahbarlik uslublarining jamoa samaradorligi va loyiha muvaffaqiyatiga ta’sirini baholash	563
Eshmurodov Sulton Suvonqulovich	Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining aktiv va passivlarini muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish yo‘llari	570
Alikulov Azamat Tuygunovich	O‘zbekistonda sukuk bozorini shakllanishida malayziya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari	580
Madaminov G‘ayrat Madiyarovich	Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishning xizmat samaradorligi va kadrlar barqarorligiga ta’sirini ekonometrik baholash	587
Абдуллаева Шахло Рустамовна	Цифровая трансформация бизнес-процессов как фактор повышения эффективности предприятий	593
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	Денежные переводы трудовых мигрантов как фактор макроэкономической устойчивости Республики Узбекистан: возможности и риски	601
Азимова Феруза Маликовна	Технологическое развитие регионов Узбекистана и факторы его дифференциации	607
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekiston sug‘urta bozorining moliyaviy barqarorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	616
Azizova Zilola Lochinovna	Budjet tashkilotlarida qurilish-ta’mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish	626
Городилова Мария Владимировна	Цифровизация в энергетической отрасли: потенциал и инновационные тренды развития, влияние на экономику	635
Abdusalimov Lazizbek Otabek o‘g‘li	Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish	645
Бобожонов Азимжон Акмал ўғли, Ортиков Нодиржон Хайруллоевич	Нақдсиз ҳисоб-китоблар трансформацияси: ПФ-246-сонли фармоннинг тадбиркорлик муҳитига ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга таъсири (Эмпирик ва институционал таҳлил	653
Norquchqorov Abdulaziz Ziyodulla o‘g‘li	Davlat oliy ta’lim tashkilotlarida smetalar ijrosi hisobining nazariy-institutsional asoslari	662
Толмачева Александра Владимировна	Внутренний контроль качества бухгалтерского учёта при аутсорсинговом обслуживании бизнеса в Узбекистане	672
Газиева Нодира Дилмуротовна	Страховой рынок Узбекистана: динамика, структура и потенциал роста проникновения страхования	678
Misirxonov Xabibxon Iskandar o‘g‘li	Sport-sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirishda xorijiy tajriba va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari	686
Xusan Xusainov Baratovich	Aholi tadbirkorligini kreditlashni takomillashtirishning yo‘llari	695
Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligini integral ko‘rsatkich asosida kompleks baholash metodikasi	701
Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o‘g‘li	Milliy kapital bozori rivojlanishining joriy tendensiyalari tahlili	708

MILLIY KAPITAL BOZORI RIVOJLANISHINING JORIY TENDENSIYALARI TAHLILI

Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
E-mail: s.abdulxakimov@tsue.uz
ORCID: 0009-0009-4690-9010

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston milliy kapital bozori rivojlanishining joriy tendensiyalari, uning institutsional va tarkibiy o‘zgarishlari va qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsion faollik dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida 2014-2025-yillarda respublika fond birjasidagi savdo hajmlarining o‘zgarishi, aksiyalar bozorining rivojlanish xususiyatlari, 2018-2025-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar soni baholangan. Tahlil natijalarida milliy kapital bozorida savdo hajmlarining sezilarli ortishi, aksiyalar segmentining ustuvor mavqega ega ekanligi, korporativ obligatsiyalar bozorini yanada rivojlantirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kapital bozori, fond bozori, qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar bozori, korporativ obligatsiyalar, fond birjasi, institutsional investorlar, savdo hajmi, investitsion faollik, korporativ moliyalashtirish.*

АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА КАПИТАЛА

Абдулхакимов Сироджиддин Нурбой углы
Доцент Ташкентского государственного экономического университета, PhD
E-mail: s.abdulxakimov@tsue.uz
ORCID: 0009-0009-4690-9010

Аннотация. *В статье проанализированы современные тенденции развития национального рынка капитала Узбекистана, его институциональные и структурные изменения, а также динамика инвестиционной активности на рынке ценных бумаг. В рамках исследования оценены изменения объемов торгов на республиканской фондовой бирже за 2014-2025 годы, особенности развития рынка акций, а также динамика количества сделок с ценными бумагами в разрезе отраслей экономики за 2018-2025 годы. По результатам анализа выявлены значительный рост объемов торгов на национальном рынке капитала и доминирующее положение сегмента акций, а также разработаны предложения по дальнейшему развитию рынка корпоративных облигаций.*

Ключевые слова: *рынок капитала, фондовый рынок, ценные бумаги, рынок акций, корпоративные облигации, фондовая биржа, институциональные инвесторы, объем торгов, инвестиционная активность, корпоративное финансирование.*

ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL CAPITAL MARKET

Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy ugli
Associate Professor at Tashkent State University of Economics, PhD
E-mail: s.abdulxakimov@tsue.uz
ORCID: 0009-0009-4690-9010

Abstract.*The article analyzes current trends in the development of Uzbekistan's national capital market, its institutional and structural changes, and the dynamics of investment activity in*

the securities market. The study examines changes in trading volumes on the Republican Stock Exchange during 2014-2025, the development characteristics of the equity market, and the number of securities transactions across economic sectors during 2018-2025. The findings reveal a significant increase in trading volumes in the national capital market and the dominant position of the equity segment. The study also develops proposals for the further development of the corporate bond market.

Keywords: *capital market, stock market, securities, equity market, corporate bonds, stock exchange, institutional investors, trading volume, investment activity, corporate financing.*

Kirish

Bugungi kunda kapital bozorini rivojlantirish, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish va ularning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini bozor mexanizmi asosida ta’minlash masalalari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida kapital bozorini transformatsiya qilish, institutsional investor faoliyatini rivojlantirish va korporativ moliyalashtirishning samarali mexanizmini joriy etish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarning bosqichma-bosqich ijrosini ta’minlash natijasida, iqtisodiyotning barqaror va yuqori sur’atlar bilan o‘sishi ta’minlanmoqda [1]. Ayniqsa, mazkur jarayonda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganligi mazkur sohani rivojlantirish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib beradi. Xususan, korporativ boshqaruvning zamonaviy standartlarini joriy etish, aksiyadorlarning strategik boshqaruvdagi rolini kuchaytirish hamda kapital bozorini korxonalar, moliya institutlari va aholining erkin resurslarini joylashtirishning muqobil manbai sifatida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur strategik vazifalar milliy kapital bozorining institutsional va funksional rivojlanish tendensiyalarini tizimli tahlil qilish, uning iqtisodiyotdagi investitsion resurslarni qayta taqsimlash imkoniyatlarini baholash orqali mavjud rivojlanish cheklovlarini aniqlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan qimmatli qog‘ozlar emissiyasini kengaytirish, fond bozorining likvidligini oshirish, institutsional va xususiy investorlar ishtirokini faollashtirish, shuningdek, korporativ qimmatli qog‘ozlarning investitsion jozibadorligini ta’minlash milliy kapital bozorini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

“Kapital bozori-turli biznes subyektlariga kapital jalb qilish, uy xo‘jaliklariga jamg‘armalarni boshqarish imkonini berish bilan birga bank kreditlariga muqobil manba sifatida uzoq muddatli moliyalashtirishni ta’minlaydigan moliyaviy infratuzilma hisoblanadi” [2]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) yondashuvi kapital bozorini faqat qimmatli qog‘ozlar savdo maydoni sifatida emas, balki keng qamrovli moliyaviy ekotizim sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvda ikkita asosiy jihat ajralib turadi: birinchisi - biznes sektori uchun kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish, ikkinchisi – uy xo‘jaliklari darajasida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish. “ECB (Yevropa Markaziy banki) tomonidan bildirilgan fikrda, yaxshi rivojlangan va integratsiyalashgan kapital bozorlari - butun mintaqada iqtisodiy o‘sish va barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydigan, biznes va uy xo‘jaliklari uchun foydali bo‘lgan yagona “kapital bozor” makonidir” [3]. Yevropa Markaziy banki kapital bozorini yagona integratsiyalashgan makon sifatida tavsiflar ekan, bu g‘oya moliyaviy integratsiya nazariyasi va kapital bozorlarining chuqurlashuvi konsepsiyalariga tayanadi. Natijada, resurslarning chegaralar bo‘ylab optimal taqsimoti sodir bo‘ladi, bu esa iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi va tizim barqarorligini oshiradi.

“Kapital bozorlari integratsiyasining asosiy g‘oyasi shundan kelib chiqadiki, kapital

bozorlari resurslarni taqsimlash va moliyalashtirishga kirishni yaxshilaydi - bozorlar orqali uzoq muddatli mablag‘larni jamlaydi” [4]. Véron kapital bozorlari ittifoqi (Capital Markets Union – CMU) g‘oyasini resurslarni samarali taqsimlash va moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati bilan izohlaydi. Nazariy nuqtai nazardan ushbu konsepsiya moliya bozorining asosli modeli va moliyaviy rivojlanish nazariyasiga asoslanadi. “Kapital bozorlari xalqaro va milliy darajadagi risklar ta’sirini boshqarishda muhim o‘ringa ega bo‘lib, muqobil qayta sug‘urta instrumentlari orqali risklarni transfer qiladi - ya’ni bozor asosidagi uzoq muddatli moliyalashtirish mexanizmini shakllantiradi” [5]. Olim tomonidan kapital bozori risklarni boshqarishdagi muhim makon sifatida yondashiladi. Mazkur ta’rif risklarni diversifikatsiya qilish nazariyasi va moliyaviy innovatsiyalar nazariyasi bilan bog‘liq deb o‘ylaymiz. “Kapital bozorlari - xususiy sektor o‘sishi uchun markaziy omil bo‘lish bilan birga, korporativ tuzilmalar uchun xalqaro bozorlarga chiqib, bevosita kapital jalb qilish imkonini beradi. Shu bilan birga kapital bozorlaridan jalb qilingan mablag‘lar (aksiyalar va obligatsiyalar) – kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy o‘sishini moliyalashtirishning bevosita manbai hisoblanadi” [6]. Mualliflarning ta’kidlashicha, kapital bozori milliy iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda xususiy sektor o‘sishining asosiy omili hisoblanadi.

“Mamlakatimizda xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali aksiyadorlik jamiyatlarini qo‘shimcha moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hamda xalqaro suveren kredit reytingini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro moliya bozori ishtirokchilariga aylanishi ularning xalqaro integratsiyalashuv jarayonlarini oshirish bilan birga ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatini yanada oshiradi” [7]. Albatta, O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari uchun xalqaro kapital bozoriga chiqish strategiyasi ikki tomonlama ahamiyatga ega: bir tomondan, bu ularning moliyaviy barqarorligi va investitsiya salohiyatini oshiradi, ikkinchi tomondan esa, xalqaro integratsiya jarayonlarini jadallashtirib, innovatsion texnologiyalarni milliy ishlab chiqarish sektoriga tezroq tatbiq etishga imkon beradi. “Kapital bozori - bu moliya bozorining bir qismi bo‘lib, unda turli moliyaviy instrumentlar bo‘yicha savdolar amalga oshiriladi. Kapital bozori tuzilmasini aniqlashga bir nechta yondashuvlar mavjud bo‘lib, institutsional yondashuvga ko‘ra, bozorlar kapital harakatini vaqt va makonda tartibga soluvchi me’yorlar, qoidalar hamda cheklovlar majmuiga nisbatan tasniflanadi” [8]. «Kapital bozorida institutsional investorlar faolligini oshirish masalasini kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi. Uning asosiy ilmiy g‘oyasiga ko‘ra, kapital bozorining barqaror rivojlanishi va iqtisodiyotga uzoq muddatli investitsiya resurslarini jalb etish darajasi, avvalo, institutsional investorlar - tijorat banklari, sug‘urta kompaniyalari va investitsiya fondlarining investitsion, emission va moliyaviy vositachilik faoliyati qanchalik samarali tashkil etilganligiga bog‘liq» [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Dinamik tahlil asosida fond birjasidagi umumiy savdo hajmlari va aksiyalar bozoridagi o‘zgarishlar, tarkibiy tahlil orqali esa bank, sanoat, sug‘urta va boshqa tarmoqlar emitentlarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtiroki baholandi. Qiyosiy tahlil yordamida aksiyalar va korporativ obligatsiyalar segmentlarining rivojlanish xususiyatlari o‘zaro taqqoslandi.

Tahlil va natijalar

2023-yilda iqtisodiyotning 10 ta turli xil soha emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan birja savdolari amalga oshirildi. Eng ko‘p bitimlar bank va sanoat sektorlari emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan amalga oshirilganligini alohida qayd etish kerak. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan 229 898 ta bitim tuzildi, bu birja bitimlari umumiy sonining 55,82 foizini tashkil etdi. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalari tomonidan 2018-yilda qimmatli qog‘ozlarga doir 280 ta bitim amalga oshirilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2023-yil yakunlariga kelib 110 barobardan oshgan holda 31 810 dona, 2024-yilda esa sug‘urta sektori bo‘yicha bitimlar soni 38 490 taga, 2025-yilda esa 40 410 taga yetib, barqaror o‘sish tendensiyasi davom etganini ko‘rsatadi

(1-jadval).


1-jadval.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar soni, ming dona

Iqtisodiyot tarmoqlari	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y	2025 y
Banklar	8,14	7,69	12,72	23,42	26,04	229,89	278,17	294,86
Sanoat	9,24	10,02	7,6	11,02	21,24	36,79	44,51	46,74
Sug‘urta	0,28	0,3	0,71	1,45	2,58	31,81	38,49	40,41
Boshqalar	1,05	1,35	3,59	8,83	10,57	28,01	33,89	35,25
Energetika	0,29	0,38	0,46	4,57	4,03	22,69	27,46	28,56
Aloqa	0,11	0,1	0,24	0,28	0,32	20,81	25,18	25,94
Qurilish	11,88	12,43	9,66	20,66	14,62	20,08	24,30	25,03
Agrosanoat	0,76	0,88	1,03	1,13	1,16	18,52	22,42	23,09
Transport	0,019	0,026	0,009	0,081	0,084	2,57	2,22	2,26
Lizing	0,021	0,028	0,017	0,034	0,037	0,63	0,89	0,91

* https://uzse.uz/system/analytics - ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2014-yilda Toshkent RFBda jami 97,6 mlrd. so‘mlik savdolar amalga oshirilgan bo‘lsa ushbu ko‘rsatkich-yillar bo‘yicha o‘sishi dinamikasiga ega bo‘lgan (1-rasm). Xususan, 2014-2016-yillar davrida savdo hajmining nisbatan past darajada shakllanishi fond bozorining institutsional rivojlanishning dastlabki bosqichida bo‘lgani, moliyaviy instrumentlar turlarining cheklanganligi hamda investorlar faolligining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mazkur davrda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki institutsional chora-tadbirlar amalga oshirila boshlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son Farmoni bilan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, ochiqlik va shaffoflikni oshirish, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish hamda xalqaro boshqaruv standartlarini bosqichma-bosqich tatbiq etish vazifalari belgilandi. Mazkur institutsional islohotlarning amaliy natijalari 2017-2018-yillardan boshlab qimmatli qog‘ozlar bozorida yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Xususan, 2017-yildan keyingi davrda fond bozorida savdo hajmlarining sezilarli darajada oshishi kuzatilib, 2018-yilda Toshkent respublika fond birjasida amalga oshirilgan savdolar hajmi 687,3 mlrd so‘mga yetdi.




1-rasm. Qimmatli qog‘ozlar umumiy savdo hajmi (mlrd.so‘m)

*https://www.uzse.uz/analytics/ - ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu o‘sish, bir tomondan, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida emitentlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligi oshgani bilan, ikkinchi tomondan esa investorlar, jumladan institutsional investorlarning fond bozoriga bo‘lgan ishonchi mustahkamlangani bilan izohlanadi. Mazkur jarayonlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-

2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar bilan chambarchas bog‘liqdir deb hisoblaymiz. Xususan, Strategiyada iqtisodiyotni liberallashtirish, moliya bozorini rivojlantirish, xususiy mulk va investorlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish vazifalarining belgilanishi fond bozorida bozor mexanizmining faollashuviga xizmat qilganligini qayd etish mumkin.

2024-yilda esa qimmatli qog‘ozlar bozorida misli ko‘rilmagan o‘sish qayd etilib, umumiy savdo hajmi 21951,2 mlrd so‘mga yetdi. 2025-yilga kelib esa ushbu ijobiy dinamika yanada mustahkamlanib, qimmatli qog‘ozlar bozorining umumiy savdo hajmi 25248,3 mlrd. so‘mga yetdi. Ushbu keskin o‘sish bir qator o‘zaro bog‘liq iqtisodiy, institutsional va bozor omillari bilan izohlanadi. Avvalo, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasi doirasida kapital bozorini real sektorni moliyalashtirishning muhim manbaiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliy natijalari 2024-yilda to‘liqroq namoyon bo‘la boshladi. Ta’kidlash kerakki, qimmatli qog‘ozlar bozorida umumiy savdo hajmida eng yuqori ulush aksiyalar bilan bog‘liq savdolar hissasiga to‘g‘ri keladi. Xususan, 2014-yilda aksiyalar bozorida savdolar hajmi 90,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda mazkur ko‘rsatkich izchil o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. 2015-2016-yillarda savdolar hajmi mos ravishda 152,95 mlrd. so‘m va 257,8 mlrd. so‘mga yetgan bo‘lib, bu aksiyalar bozorida dastlabki faollashuv jarayonlari boshlanganidan dalolat beradi (2-rasm).



2-rasm. Aksiyalar bozoridagi savdolar hajmi dinamikasi (mlrd.so‘m)

*https://www.uzse.uz/analytics/ - ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2017-yilda aksiyalar bilan savdolar hajmining 216,75 mlrd. so‘m atrofida bo‘lib, savdolar hajmining keskin oshmasligi aksiyalar bozorida institutsional va huquqiy islohotlar hali to‘liq amaliy natija bermaganligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, aynan ushbu yillarda aksiyalar bozorining keyingi jadal rivoji uchun zarur bo‘lgan infratuzilmaviy va tashkiliy asoslar shakllantirildi. 2018-yilda aksiyalar bozorida savdolar hajmi 673,77 mlrd. so‘mga yetib, oldingi yilga nisbatan sezilarli o‘sish qayd etildi. Bu holat aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimining takomillashuvi, emitentlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflik darajasining oshishi hamda investorlar ishonchining mustahkamlanishi bilan izohlanadi. Natijada, aksiyalar bozori qimmatli qog‘ozlar bozorining nisbatan faol segmentiga aylana boshlanganligini qayd etish zarur. 2019-2020-yillarda aksiyalar bozoridagi savdolar hajmi mos ravishda 384,44 mlrd. so‘m va 510,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘sish sur’atlarining ma’lum darajada sekinlashgani kuzatiladi. Bu davrda global iqtisodiy beqarorlik va pandemiya sharoitlari fond bozori faolligiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, aksiyalar bozorida ijobiy dinamikaning saqlanib qolishi uning barqarorlik darajasini namoyon etadi. 2021-yildan boshlab aksiyalar

bozorida savdolar hajmining jadal o‘sish bosqichi boshlandi. Xususan, 2021-yilda savdolar hajmi 1147,1 mlrd. so‘mga yetib, oldingi yilga nisbatan ikki barobardan oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu keskin o‘sish aksiyalar bozorida yirik emitentlar faolligining ortishi, birlamchi va ikkilamchi bozor segmentlarining kengayishi bilan izohlanadi. O‘ylashimizcha qimmatli qog‘ozlar bozorida aksiyador savdo hajmining yuqori ulushlarda saqlanib qolishi, bir tomondan, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarini transformatsiya qilish, ularning moliyaviy barqarorligini oshirish va kapital bozorida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan institutsional islohotlar bilan izohlanadi.

Xususan, korporativ boshqaruv tizimining takomillashuvi, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga moslashtirilishi hamda emitentlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflik darajasining oshirilishi aksiyalarni investorlar uchun nisbatan jozibador moliyaviy instrumentga aylantirdi. Ikkinchi tomondan, aksiyalar bo‘yicha savdo hajmining yuqori ulushi xususiylashtirish jarayonlarining jadallashuvi va davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarining fond bozori orqali joylashtirilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Yuqorida qayd etilganidek, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat aktivlarini bozor mexanizmlari asosida realizatsiya qilish, shuningdek, kapital bozorini real sektorni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biriga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada, ayniqsa 2022-2025-yillarda yirik hajmdagi aksiyalar bilan bog‘liq birlamchi joylashtirishlar va blok-bitimlarning ko‘payishi umumiy savdo hajmida aksiyalar ulushining keskin oshishiga olib keldi.

Xulosa

Aksiyalar savdosining yuqori ulushi investorlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Xususan, chakana investorlar tomonidan aksiyalarga bo‘lgan qiziqishning ortishi, dividend daromadlari va kapital qiymatining o‘sishidan foyda olish imkoniyatlari fond bozorida aksiyalarni eng faol muomalada bo‘lgan instrument sifatida shakllantirdi. Bunga raqamli savdo platformalarining rivojlanishi, moliyaviy xizmatlardan foydalanishning soddalashuvi hamda birja axborotlarining ochiqligi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatganligini qayd etish kerak. Umuman olganda, qimmatli qog‘ozlar savdo hajmida aksiyalar ulushining yuqori bo‘lishi O‘zbekistonda kapital bozorining rivojlanish modeli real sektorni kapitallashtirish va mulkchilik munosabatlarini bozor mexanizmlari orqali qayta taqsimlashga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, fond bozorining iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim moliyaviy institut sifatida shakllanib borayotganini tasdiqlaydi.

Ta’kidlash kerakki, institutsional investorlarning kapital bozoridagi ishtirokining muhim yo‘nalishlaridan biri korporativ obligatsiyalar bilan bog‘liq yo‘nalish hisoblanadi. Keyingi-yillarda milliy kapital bozorida obligatsiyalar bo‘yicha savdo hajmi biroz o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib bormoqda. Biroq xalqaro amaliyot tajribalari bilan solishtiradigan bo‘lsak, mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ obligatsiyalar emissiya qilish orqali faoliyatni moliyalashtirish amaliyoti pastligicha saqlanib qolmoqda. Umuman olganda, O‘zbekistonda korporativ obligatsiyalar bozori uzoq vaqt davomida cheklangan rivojlanish bosqichida bo‘lgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda , ayniqsa 2021-2025-yillarda, ushbu segmentning kapital bozoridagi roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Aksiyalar bozori bilan solishtirganda obligatsiyalar bozori hali nisbatan kichik ulushga ega bo‘lsa-da, 2025-yilda qayd etilgan yuqori savdo hajmi ushbu segmentning iqtisodiyot uchun muhim uzoq muddatli moliyalashtirish manbai sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu esa O‘zbekistonda kapital bozorining diversifikatsiyalashuvi va institutsional investorlar rolini oshirish jarayonlari izchil davom etayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
2. https://www.oecd.org/publications/oecd-economic-outlook-volume-2025

3. European Central Bank. Financial Integration in Europe. ECB Occasional Paper, 2025.
4. Véron N. Europe’s Capital Markets Union and the New Single Supervisory Mechanism. Journal of Financial Regulation, 2016.
5. Kefen Mou, Bing Xu, Digital finance, government regulation, and corporate capital market efficiency, Finance Research Letters, Volume 68, 2024, 105972, ISSN 1544-6123, https://doi.org/10.1016/j.frl.2024.105972.
6. Didier T., et al. Financing Firms in Emerging Markets. Journal of Financial Markets, Volume 2, 2021.
7. Xamdamov O.N. va boshqalar. Xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotining tahlili. Iqtisod va moliya jurnali 2020, 4(136).
8. Saydaliyev S.S. O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish istiqbollari: diss. avtoreferati. PhD – Toshkent, 2022. – 16 b.
9. Omonov S.O‘. Kapital bozorida institutsional investorlar faolligini oshirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. : 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. – Toshkent : Toshkent moliya instituti, 2023. – 58 b.
10. Fleta-Asín J., Muñoz F. When Bigger Is Better: Investment Volume Drivers in Infrastructure Public-Private Partnership Projects//Socio-Economic Planning Sciences. - 2023. - Vol. 86.